

Cho‘L Malikasi-Saksovulning Bioekologik Xususiyatlari

Y. D. Xolov¹, N. Qahhorov², M. Soibov³

Kalit so‘zlar: Ekotizim, delta, voha, cho‘l, sho‘radoshlar, saksovul, degradatsiya, qurg‘oqchilik.

Kirish. Hozirgi ekologik vaziyat tang bo‘lgan bir davrda voha va cho‘l ekotizimlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ilmiy jihatdan o‘rganish va to‘g‘ri tahlil qila bilish respublikamizda tabiatni muhofaza qilish bilan birga uning kelajakdagi holatini ham to‘g‘ri prognozlashtirishga yordam beradi.

Voha va cho‘l termogidrodinamik va gidravlik jihatdan o‘zaro aloqadorlikda rivojlanuvchi ekotizimlardir. Voha va cho‘l ekotizimlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik eng avvalo ularning litologik-geomorfologik sharoitlarining bir-birlariga yaqinligidadir. Ular asosan alluvial delta, daryolarning proluvial-alluvial terrasalarida, proluvial shleyf va konus yoyilmalarida mujassamlashgan tabiiy hududiy majmualardir. Bu ekotizimlarning ma‘lum qismini yoki to‘lig‘icha obikor dexqonchilikda foydalanilishi ular o‘rtasidagi aloqadorlikni ma‘lum qonuniyatlar asosida davom etishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtda Respublika hududining 70 foizi yoki 31,4 mln ga tabiiy sho‘rlanishga, qum ko‘chkilari, changli bo‘ronlar va garmseller tarqalishi ta‘siriga uchragan qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil maydonlardan iborat. Orol fojiasi oqibatida 5,5 mln gektardan ortiq maydonli Orolqum cho‘li vujudga kelgan [1]. O‘zbekistonda cho‘l va yarim cho‘l hududlaridan 17,5 mln ga atrofidagi qurg‘oqchil tabiiy yaylovlar chorvachilik uchun ajratilgan bo‘lib uning deyarli barcha hududlarida katta hajmda degradatsiyaga uchragan maydonlar mavjud. Cho‘l yaylovlarining 40 foizida turli darajadagi yaylovlar degradatsiyasi yuzaga kelgan va ularning o‘rtacha hosildorligi 20-30% foizga kamaygan. Degradatsiyaga uchragan va birinchi navbatda yaxshilanishi kerak bo‘lgan yaylovlar respublikada 8,0 mln. gektarga yaqin maydonni tashkil qiladi. Albatta bugungi kunda ushbu jarayonlarni oldini olishda ayrim cho‘l o‘simliklarning roli nihoyatda katta. Shulardan biri saksovul o‘simligidir.

SAKSOVUL (Haloxylon) — sho‘radoshlar oilasiga mansub buta va daraxtlar turkumi. Bo‘yi 1,5—12 m, tanasining diametri 1 m gacha boradi. Guli mayda, ikki jinsli, qaramaqarshi, tangachasimon, guloldi qo‘ltig‘ida bittadan o‘rnashgan. Barglari uchli, rivojlanmagan, tangachasimon, gul xreil qiluvchi novdachalari qari shoxlardan o‘sib chiqadi. Saksovulning yashil novdalari organik modda to‘plashga xizmat qiladi. Yillik yosh novdalarining ko‘p qismi kuzda, ayniqsa, sovuq tushishi bilan to‘kilib ketadi, ozroq qismi esa yog‘ochga aylanib saqlanib qoladi. Apreldan gullay boshlaydi, oktabrda urug‘laydi. Osiyo (O‘rta Osiyo, Eron, Afg‘oniston, Xitoy, Mongoliya)da 10 turi uchraydi. Cho‘l mintaqalarida saksovullarning asosan 3 turini uchratish mumkin. O‘zbekistonning Qizilqum cho‘llarida o‘rmonlarni hosil qiluvchi asosiy turlar — oq va qora Saksovuldir.

➤ **Qora saksovul.** Qora Saksovul (*N. aphyllum*) — bargsiz buta yoki daraxt, balandligi 4—9 (12) m gacha. Asosan, Osiyoning cho‘l va chala cho‘llarida, sho‘rxok yerlarda, sho‘rlangan qumlarda, taqirlarda ko‘p tarqalgan. Urug‘idan ko‘payadi. Yo‘llarda ixotazorlar barpo etishda foydalaniladi. Qora Saksovul katta daraxtzorlar hosil qiladi, oq Saksovuldan tana va shoxshabbasining qoramtir bo‘lishi, bargining tuzilishi bilan ajralib turadi. O‘simlikdagi 15 metrgacha yetadigan uzun tomirlar yer osti suvlaridan oziqlanib, tanasigi namlik bilan ta‘minlashga imkon beradi. Qora saksovullar mayda va ilg‘ash qiyin bo‘lgan gulchalarga ega. Quyoshga bardoshli va chorva yegandan keyin qayta tiklanish xususiyatiga ega. Cho‘l tuprog‘ini yaxshi tutib turadi.

¹ Buxoro ilmiy –tajriba stansiyasi

² Buxoro ilmiy –tajriba stansiyasi

³ Buxoro ilmiy –tajriba stansiyasi



Oq saksovul. Oq saksovul (*H.persicum*) — yirik buta. Balandligi 2,5—6 m. ildizi 10—11 m chuqurlikka boradi. Qozog‘iston, O‘rta Osiyo, Eron, Afg‘oniston, Iroq, Saudiya Arabistoni, G‘arbiy Xitoyning cho‘l va sahrolarida o‘sadi. Oq saksovul qumliklarni mustahkamlash uchun ekiladi. Ushbu turdagi saksovullar rangsiz tangacha shaklidagi barglarga ega bo‘lib, bo‘yi 5 metrgacha bo‘lishi mumkin. Oq saksovullar qurg‘oqchilikka bardoshlilik bilan ajralib turadilar. Qattiq va pishiqlik tanasi evaziga kesish juda mushkul, asosan o‘tin sifatida ishlatiladi.

Zaysan saksovullari. Zaysan saksovul (*H.ammodendron*) turi Qoraqalpog‘istonning ayrim joylari (Ustyurt)da uchraydi. Shoxlari uzun va yashil poyalar bilan qoplangan bo‘ladi. Ushbu o‘simlikdan avtomobil yo‘llari uchun sahro qumlaridan himoyalovchi vosita sifatida foydalaniladi. Zaysan saksovullari juda sekin o‘sadi, agar kesib olinsa, qayta tiklanishi og‘ir kechadi.

Saksovulning xalq xo‘jaligida ahamiyati katta. Undan, asosan, o‘tin (yoqilg‘i), qo‘ylar va tuyalar uchun to‘yimli ozuqa, qumlarni mustahkamlovchi, shamolni to‘sovchi vosita sifatida foydalaniladi. saksovul o‘rmonlari tuproqni eroziyadan saqlashda muhim o‘rinda turadi. Saksovullar 50—60 y. yashaydi. Asosan, urug‘idan ko‘payadi va 5—7 yili normal urug‘lay boshlaydi. O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda saksovul o‘rmonlari 22 mln. ga atrofida. O‘zbekistonda Saksovul o‘rmonlari 1229 ming ga, shundan oq Saksovul 976 ming ga, qora Saksovul 253 ming ga ni egallaydi.

O‘zbekistonda cho‘l va yaylovlarga ekish uchun 1991 y. da chiqarilgan Nortuya navi rayonlashtirilgan. So‘nggi yillarda Saksovulni ko‘paytirish maqsadida bir qator o‘rmon xo‘jaliklari tashkil etilib, sun‘iy saksovulzorlar barpo qilinmoqda.

Sovuq tushishi bilan saksovullar tangacha-barglarini to‘kadilar. Bahor kelishi bilan saksovul daraxtlari mayda gullar bilan burkanadi. Kuz fasliga kelib saksovul urug‘lari yetiladi.

Saksovullarning barglari va shohchalari sahro tuyalari uchun ozuqa hisoblanadi. Saksovul daraxtlari yonganda katta miqdorda issiqlik ishlab chiqarishi hisobiga, turmushda yonilg‘i sifatida foydalaniladi.

Saksovulzorlar barpo etish orqali ko‘chma qumlar mustahkamlanadi, cho‘llanish jarayoni sekinlashadi, uning ta‘sirida yer ustki qismida shamolning tezligi kamayadi, chang to‘zonlari bo‘lib havoga tuz va qum zarrachalarini ko‘tarilishi to‘xtaydi. 7 yoshli saksovulzorda shamol tezligi butunlay to‘xtaydi. Bir tup saksovul o‘simligi to‘rt tonna ko‘chuvchi qumni tuxtata oladi. 1 gektar saksovulzor yil davomida 1135 kg karbonat angidrid gazini yutib 835 kg kislorod ajratadi. Bu esa havo tarkibini yaxshilaydi, atrof muhitni ifloslanishiga chek qo‘yiladi.

Cho‘l va yarim cho‘l ozuqabop o‘simliklari, jumladan saksovulni yetishtirish texnologiyasining mashinalar umumiy kompleksida ekish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uni o‘z vaqtida sifatli bajarilishi yaylovlar degradatsiyasini bartaraf etish va mahsuldorligini oshirish hamda ko‘chma qum bo‘ronlarni to‘xtatish bilan birga mehnat va boshqa sarf-xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.

Xulosa. Cho‘l ekotizimlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik ancha murakkab, ko‘p omilli bo‘lib, vohalarning katta-kichikligi, shakl-shamoyili kabilarga bog‘liq bo‘lgani holda, yana qator tabiiy - antropogen jarayon va hodisalarni ham hisobga olishni taqozo etadi. Bu aloqadorlikni ilmiy jihatdan o‘rganish va tegishli tadbirlarni qo‘llash har ikkala ekotizimlarning mahsuldorligini orttiradi va natijada ulardagi ekologik sharoitni optimallashtirishga yordam beradi. Bu borada saksovul o‘simligini o‘rganish va ularni ko‘paytirish chora tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Farmonov E. T.1, Pulatov A. T- Чўл ва ярим чўл худудларида саксовул уруғини экишни механизациялаш орқали яшил қалқон майдонлар барпо этиш билан қум бўронларига қарши курашиш - Agro Inform N4 [10] 2023\
2. Xolov Yoqub Davronovich- SHO‘R TUPROQLARNING EKO-MELIORATIV HOLATI- Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil_5-сон



3. Davronovich Kholov Yukub, Ergashovich Kholiev Askar -Growing of cotton varieties and hybrid to the height under the ecological conditions of soil salinity and washed soil salinity Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)-2019

